

**NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAVOIY VILOYATIDA
XIZMATLAR SOHASINING
RIVOJLANISHI**

**2022- YILNING
YANVAR-OKTABR OYLARIDA**

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi




Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –
7 501,0 mlrd. so'm



Xizmatlar sohasida kichik biznesning
ulushi – **58,1 %**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi – **7 198,7 ming so'm**



Xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, samarali bandlik va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 418,9** mlrd. so'mga oshib, **7 501,0** mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga (**116,7 %**) nisbatan o'sish sur'ati **113,9 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-oktabr oylarida umumiy savdo xizmatlari **30,9** %, moliyaviy xizmatlar **22,2** %, transport **17,7** %, yashash va ovqatlanish xizmatlari **3,9** % va me'morchilik **5,5** % ni tashkil etdi. Ushbu davrda sog'liqni saqlash xizmatlarining ulushi ham minimal bo'lgan – **1,3** %.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-oktabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmini o'sishining asosiy omili yashash va ovqatlanish xizmatlarining **65,6 %** ga o'sishi, ta'lim sohasidagi xizmatlar – **22,5 %** ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **20,0 %** ga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar – **18,3 %**, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar – **16,2 %**, moliyaviy xizmatlar – **15,1 %**, shuningdek, boshqa xizmatlar – **14,3 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o'sish sur'ati yuqori bo'lgan xizmat turlari, %da



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, % da
	2021- y.	2022- y.	
Xizmatlar – jami	6 082,1	7 501,0	113,9
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	237,6	286,7	120,0
Moliyaviy xizmatlar	1 348,2	1 581,3	115,1
Transport xizmatlari	1 078,0	1 230,2	107,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>900,8</i>	<i>1 043,9</i>	<i>108,8</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	234,6	466,6	165,6
Savdo xizmatlari	1 880,3	2 353,9	111,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	121,4	150,1	116,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	199,3	259,7	122,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	81,1	108,1	118,3
Ijara xizmatlari	96,2	116,1	113,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	95,6	120,0	111,3
Shaxsiy xizmatlar	148,0	199,8	111,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	333,8	350,6	98,7
Boshqa xizmatlar	228,0	277,9	114,3

Aholi tomonidan xizmatlar sohasining har xil turlariga bo'lgan talabning barqaror o'sishi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmani (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minladi.


Masalan, savdo ibtidoiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talabini yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi.

Hozirgi vaqtda savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining muhim qismini tashkil etadi.



2022-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari ulushi

**O'sish sur'ati,
% da**




**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**



**Savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-oktabr)**

1. Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar
2. Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
3. Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2022- yil yanvar-oktabr)	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy sh.	564,0	106,8
Zarafshon sh.	278,4	121,1
G'ozg'on sh.	2,3	115,2
Karmana t.	415,4	111,9
Konimex t.	64,0	113,5
Qiziltepa t.	286,8	112,9
Navbahor t.	193,9	110,3
Nurota t.	153,4	107,9
Tomdi t.	31,8	105,3
Uchquduq t.	109,7	108,1
Xatirchi t.	254,2	110,8


Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.


2022- yil yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari hajmi **1 230,2** mlrd. so'mni tashkil etdi, ularning o'sishi 2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **107,7** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – **16,4** %.




*O'sish sur'ati,
% da*



*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*





Transport xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-oktabr)



Transport xizmatlari (2022- yil yanvar-oktabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy sh.	260,7	105,3
Zarafshon sh.	145,8	116,3
G'ozg'on sh.	3,9	120,3
Karmana t.	236,9	102,4
Konimex t.	48,0	109,1
Qiziltepa t.	145,7	107,4
Navbahor t.	96,4	109,7
Nurota t.	75,6	112,2
Tomdi t.	27,2	111,9
Uchquduq t.	50,5	112,1
Xatirchi t	139,5	106,9


Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

**Tashish turlari bo'yicha
avtomobil transporti xizmatlarining
tarkibi, % da**





**Avtomobil transporti
xizmatlari
(yanvar-oktabr)**


**O'sish sur'ati,
% da**



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**




Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.




Moliyaviy xizmatlar (yanvar-oktabr)

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **233,1** mlrd. so'mga oshdi va **1 581,3** mlrd. so'mga yetdi. Moliyaviy xizmatlar bozor xizmatlarining umumiy hajmida **21,1** % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **115,1** % ni tashkil etdi.


*O'sish sur'ati,
% da*



*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-oktabr)



1. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar


2. Sug'urta bo'yicha xizmatlar

3. Yordamchi moliyaviy faoliyat


Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-oktabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy sh.	931,4	108,3
Zarafshon sh.	152,3	129,8
G'ozg'on sh.	7,0	115,5
Karmana t.	220,6	125,5
Konimex t.	12,6	118,6
Qiziltepa t.	97,9	128,3
Navbahor t.	44,3	122,3
Nurota t.	24,8	129,1
Tomdi t.	5,0	112,5
Uchquduq t.	29,8	128,8
Xatirchi t	55,6	124,9

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi, iqtisodiyotning turli sohalarida mavjud bo'lgan tovar va xizmatlar bozorini kengaytirish va yangilarini barpo etish, oxir-oqibatda aholi turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.


**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-oktabr)**



**O'sish sur'ati,
% da**



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar-oktabr)	Hajm, mlrd. so‘m	O‘sinh sur‘ati, % da
Navoiy sh.	76,1	115,5
Zarafshon sh.	22,2	127,0
G‘ozg‘on sh.	1,8	123,6
Karmana t.	31,9	118,9
Konimex t.	8,6	118,1
Qiziltepa t.	35,5	113,7
Navbahor t.	28,1	127,4
Nurota t.	20,8	122,4
Tomdi t.	3,6	113,8
Uchquduq t.	10,6	126,3
Xatirchi t	47,5	124,5

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining yuqori o‘shishi Navbahor tumani (**27,4 %**), Zarafshon shahri (**27,0 %**), Uchquduq (**26,3 %**) hamda Xatirchi tumanlarida (**24,5 %**) qayd etildi.


Ushbu xizmatlar hajmining nisbatan biroz o‘shishi Qiziltepa tumanida kuzatildi – **13,7 %**.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-oktabr)

O'sish sur'ati,
% da




Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm



Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2022- yil yanvar-oktabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy sh.	179,6	124,6
Zarafshon sh.	9,9	115,7
G'ozg'on sh.	0,04	116,7
Karmana t.	17,9	117,8
Konimex t.	5,0	112,5
Qiziltepa t.	11,3	116,5
Navbahor t.	7,4	114,5
Nurota t.	6,4	113,8
Tomdi t.	1,5	109,7
Uchquduq t.	7,7	123,5
Xatirchi t	13,0	126,1


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-oktabr)



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2022- yil yanvar-oktabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy sh.	68,3	122,4
Zarafshon sh.	6,0	112,0
G'ozg'on sh.	-	-
Karmana t.	8,9	112,0
Konimex t.	1,0	109,1
Qiziltepa t.	2,4	114,9
Navbahor t.	2,0	115,7
Nurota t.	2,1	109,3
Tomdi t.	0,7	107,3
Uchquduq t.	2,6	110,7
Xatirchi t	14,1	111,6

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-oktabr)


O'sish sur'ati,
% da



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2022-yil yanvar-oktabr)




Hajm, mlrd. so'm

O'sish sur'ati, % da

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-oktabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati ¹⁾	7 501,0	113,9
Navoiy sh.	2 835,4	114,1
Zarafshon sh.	936,3	112,5
G'ozg'on sh.	21,2	114,7
Karmana t.	1 094,4	113,8
Konimex t.	180,8	113,4
Qiziltepa t.	674,3	114,5
Navbahor t.	444,4	114,0
Nurota t.	335,3	113,6
Tomdi t.	98,5	111,5
Uchquduq t.	257,9	115,0
Xatirchi t	622,5	114,3

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr)


2022- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 198,7** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,6** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi **5 956,8** ming so'mni tashkil etgan.

O'sish sur'ati, % da




Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, mln. so'm





2022-yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha bu ko'rsatkich Navoiy shahrida **18 559,4** ming so'mdan G'ozg'on shahrida **2 357,1** ming so'mgachani tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
asosiy ko'rsatkichlari**
(2022- yil yanvar-oktabr)




2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati



2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-oktabr)



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 79-223-63-31